

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
G.P.Abdullaev	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolajeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullajeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullajev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ganieva	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

BUXORODA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI TARIXIY SHART-SHAROITLARI**ИСТОРИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ДЖАДИДИСТСКОГО ДВИЖЕНИЯ В БУХАРЕ****HISTORICAL CONDITIONS FOR THE EMERGENCE OF THE JADIDISM IN BUKHARA****Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li¹**¹Toshkent amaliy fanlar universiteti erkin tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqola XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlar harakati, ya'ni Buxoro jadidchiligi namoyondalarining ma'rifatparvarlik, siyosiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlariga bag'ishlangan. Maqolada Ahmad Donish, Sadrididdin Ayniy, Abdurauf Fitrat kabi mutafakkir jadidlarning ijtimoiy hayotdagi qarashlari falsafiy tahlil etilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена политическим, социально-философским основам бухарского джадидизма в просвещенных идеях представителей джадидского движения, возникшего в Туркестане в середине XIX – начале XX века. В статье анализируются социально-философский взгляды Бухарских джадидов, таких как Ахмад Дониш, С. Айни, Абдурауф Фитрата.

Abstract

This article is devoted to the political, socio-philosophical foundations of Bukhara jadidism in the enlightened ideas of the representatives of the Jadid movement, which arose in Turkestan in the middle of the XIX century and the beginning of the XX century. The article philosophically analyzes the views of modern thinkers such as Ahmad Donish, Sadrididdin Ayni, Abdurauf Fitrat in social life.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, jadidchilik, maorif tizimi, ma'rifatparvarlar, ijtimoiy-falsafiy tafakkur.

Ключевые слова: Бухарский эмират, джадидизм, система образования, просвещенные люди, социально-философское мышление.

Key words: Emirate of Bukhara, Jadidism, education system, enlightened people, socio-philosophical thinking.

KIRISH

Jahon ilmiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, vujudga kelgan ma'naviy-axloqiy ongning o'zgarishi oqibatida yosh avlodni mafkuraviy, g'oyaviy jihatdan himoya qilish va ajdodlar tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston tarixida «jadidlar» nomi bilan atalgan ma'rifatparvar ziyolilar zulm natijasida o'lka xalqining savodsizlik, qashshoqlik, jaholatga mahkum bo'lganligini teran anglab yetdilar. Jadidlarning fikricha, bu illatlardan qutulish uchun xalqni ma'rifatli qilish zarur edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi quyidagi fikrlari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarga va izlanishlarga qaratilgan o'ziga xos chaqiriqdir: Shu bois, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda. "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". [2]

Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari ular o'z harakatlari markazida maktab va maorif tizimini isloh qilib, yangi usul maktablarini ochishga, milliy matbuot, yangi adabiyot va teatrni yaratishga e'tibor qaratdilar. Ular bu yangicha islohotlar yordamida Turkiston xalqini ma'rifatlashtirib, jahondagi eng rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishni o'zlarining dasturilamal maqsadlari sifatida belgilab qo'ydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Buxoroda jadidchilikning vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari, g'oyalari va konseptual fikrlari ifodalangan merosini o'rganish xususan, xorijiy olimlar amerikaliklar Adib Xolid, [3] E.Olvort, [4.] germaniyalik I.Baldauf [5], E.Lazeri [6] kabi sharqshunos, tarixchi olimlar tomonidan olib borilgan. Jadidchilik harakatining namoyondalari ijodi, ijtimoiy-falsafiy qarashlari tadqiqi mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida R.Hodizoda, [7] N.Gafarov [8] Stefan A.Dyuduanon, Boymirza Hayit [9] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ta'kidlash lozimki, yuqoridagi

mualliflar asosan jadidlarning badiiy, dramatik asarlari, jamiyat tarixiga bag'ishlangan risolalari, kitoblari va ijtimoiy-siyosiy faoliyati mazmunini tahlil qilganlar. Shuningdek, O'zbekistonlik faylasuf, tarixchi, jamiyatshunos, pedagog olimlaridan Sh.Radjabov, [10] I.Mo'minov, [11] D.Alimova, [12] B.Qosimov, [13] U.Dolimov [14], B.Ergashev [15], Sh.A.Madayevalarning [16] ilmiy tadqiqot ishlarida jadidlarning ijtimoiy, ma'naviy hayot masallariga bag'ishlangan tadqiqotlari mazmuni mustaqil yondashuv asosida o'rganilgan. Maqolani nashrga tayyorlashda, Buxoro jadidchilik namoyondalarining, xususan A.Donish, A.Fitrat, S.Ayniy ilmiy-ma'naviy asarlari, manbalardan foydalanishda, materiallarni turkimashtirishda va mustaqil xulosalarni umumlashtirish jarayonida falsafiy tadqiqotning tarixiylik, tanqidiylik, analiz, sintez metodlaridan foydalanildi.

Maqolaning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, asarlari, Farmonlari, davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida bayon qilingan konseptual g'oyalar tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jadidlar merosini, milliy tariximiz, mamlakatimiz ma'naviy, ilmiy tarixidagi buyuk voqelik Birinchi, ikkinchi Renessans davridagi ilmiy yutuqlar, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga mansub dunyoviy bilimlar mualliflari asarlarini chuqur tahlil qilish haqidagi tavsiyalari va uchinchi Renessans poydevorini yaratishga oid bag'ishlangan Qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro jadidchilik xarakati bilan bog'liq ijtimoiy qarashlari, fikrlarini tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish uchun, jadidchilik ta'limotiga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar, respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy amaliy anjumanlar materiallari, ilmiy maqolalar, xorijlik olimlar asarlaridan foydalanildi. Shuningdek jamiyat taraqqiyotining yangi davrida ommaviy axborot vositalari, jumladan internetda e'lon qilinayotgan, jadidchilik harakatining turli qirralari mazmunini ochib berishga qaratilgan fikrlar, O'zbekistonlik va xorijdagi faylasuflar, tarixchilar, adabiyotchilar, jurnalistlarning mulohazalaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Buxoro jadidchilikni o'rganish natijasida uning tarixiy ahamiyati va mintaqa taraqqiyotiga ta'sirini belgilovchi asosiy jihatlari aniqlandi: murakkab tarixiy sharoitlar: jadidchilikning paydo bo'lishi mustamlakachilik bosimi, ijtimoiy o'zgarishlar va mavjud tuzumdan xalqning noroziligi kabi tarixiy omillarning murakkab kombinatsiyasi bilan bog'liq edi. Ta'limdagi islohoti: buxorolik jadidlar ta'lim islohoti konsepsiyasini ilgari surdilar, o'qitishning yangi usullarini, jumladan, dunyoviy fanlarni joriy qildilar. Ularning intellektual elitaga e'tibor qaratishlari va ta'limga zamonaviy yondashuvlar jamoatchilik tafakkuriga ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy ahamiyati: Jadidchilik g'oyalari zamonaviy Markaziy Osiyo jamiyatida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ular mintaqa taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ta'lim standartlari va tamoyillarini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Ijtimoiy faollik: Jadidlar ijtimoiy faollik namunasini namoyish etib, intellektual elitaning ijtimoiy o'zgarishlarda ishtirok etishi va modernizatsiyani rag'batlantirish muhimligini ta'kidladilar.

MUHOKAMA

Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakatining g'oyaviy – ma'naviy asosini beshta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- a) Rossiya tarixiy arxivlarida saqlanadigan arxiv hujjatlari, O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Boshqirdiston va boshqa davlatlar;
- b) hokimiyat hujjatlari; Jadidlar jamiyatlari, siyosiy partiyalar va tashkilotlar; s) davriy XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida bosmaxona;
- d) Jadid namoyondalarimizning ma'naviy merosi, ularning qarashlari va izdoshlari;
- e) Ilmiy asarlari, xotiralar, ontologiya qarashlari va jadid zamondoshlarining hikoyaviy asarlari.[4]

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi murakkab va ziddiyatli ijtimoiy sharoitlarda paydo bo'lgan ilg'or ijtimoiy-falsafiy tafakkur xususan o'zbek adabiyotida namoyon bo'ldi. Yangi ijtimoiy-falsafiy tafakkur bir tomondan, o'rta asr feodal tuzum idora-usuli buzilib borayotgani, ikkinchi tomondan esa, mamlakatda kapitalistik munosabatlarning kundan-kunga o'sayotganligi davrida vujudga keldi. Jadidchilikka xos bo'lgan ijtimoiy-falsafiy tafakkur tatar tarixchisi Yahyo Abdullin ta'biri bilan aytganda, u "kapitalizmning dunyoga kelishi va demokratik harakatlarning ezilgan millatlar o'rtasida uyg'onishi bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Qrim va Qozon ziyolilari o'rtasida boshlangan bu harakat tez orada Turkiston kengliklariga ham yoyildi". [7] Aslida, manbalarda e'tirof etilishicha, jadidchilik XIX asrning ikkinchi yarmida Bog'chasaroy va

Volga bo'yi tatarlari orasida chor mustamlakachilari zulmidan norozilik harakati sifatida paydo bo'lgan.

Shu asrning oxirlarida esa uning ta'siri natijasida Turkiston jadidchiligi vujudga keldi. Turkiston jadidchiligining paydo bo'lishi va rivojlanishi sabablari, uning jamiyatning ijtimoiy-ma'rifiy hayotida o'ynagan roliga obyektiv baho berish va to'g'ri tavsiflash uchun tarixiy sharoitlar, omillar qay darajada ta'sir kuchiga ega bo'lganligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridagi tarixiy vaziyat haqida muxtasar tarzda fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Chor hukumati tomonidan Markaziy Osiyoni zabt etish boshlandi va nihoyat o'lkada mustamlaka tartibi o'rnatildi.

Jadidchilik harakati Chor Rossiyasi va Buxoro Amirligi hukumatining nazorati va dushmanlik siyosati ostida davom ettirilgan bir faoliyat, harakat edi. Chor Rossiyasi jadidchilikdan harakatidan qo'rqqan, chunki jadidchilik, yoshlarni milliy tarbiya orqali Rus hukumatiga qarshi safarbar bo'lish jarayoni ketayotgan edi. Buxoroda va umuman Turkistonda mutaasib dindorlar ham jadidchilikni islomga dushman bir harakat shaklida ko'rishgan.

Buxoro Amiri va uning hukumati jadidchilikning eng jiddiy dushmani rolini o'ynadi. Buxoro Amirligida jadidchilik qo'rquvi buyuk edi. Qayerdagi, bir jadidchini ko'rsalar va uning faoliyatini sezgilar o'sha yerda uni o'ldirardilar. Shunga qaramay Buxoro Amirligidagi jadidchilik faoliyatlari ham shiddat bilan davom etgan edi.[10.]

Buxoro jadidlari o'z xalqining boy madaniyatining qonuniy merosxo'rlari bo'lib, uning eng yaxshi an'analari asosida tarbiyalangan. Ular erkin fikrlash, chuqur insonparvarlik, Vatanga muhabbat, boshqa millat odamlariga hurmat, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik ruhini qabul qildilar.

Markaziy Osiyoda xalq ommasini ekspluatatsiya qilish kuchaydi, milliy-mustamlakachilik tartibi o'rnatildi. Chorizm maorif, mahalliy matbuot, adabiyotni yuksaltirishga qarshi qaratilgan tadbirlar ishlab chiqdi, ozodlik, erkinlik, shuningdek, dunyoviy bilim g'oyalari bilan sug'orilgan ma'rifatparvarlikka qarshi kurashdi. Albatta, Buxoro jadidchiligi fenomeni shu davrdagi sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligining rivojlanishi, ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lsada, uning bir qancha yo'nalish va bosqichga ega bo'lgan g'oyaviy manbalari borligini e'tirof etish zarur. Buxoro amirligida jadidchilik harakati XX asr boshlarida iqtisodiy, tarixiy va siyosiy o'zgarishlar ta'sirida shakllandi.

Ayniqsa 1905-1907 yillardagi birinchi rus inqilobi voqealari, shuningdek, Turkiya, Fors va Hindistondagi demokratik harakatlar sabab bo'ldi. Bir-biridan farq qiladigan jamiyatning turli qatlam vakillari ijtimoiy mansublik nuqtayi nazaridan ham, ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham birlashdi. Bizningcha, jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishida Buxoro amirligida to'rt davrni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. 1900 - 1908 yillar. Bu davrida 1900-yilda Jo'raboy Pirmastiyning jadid maktabi, biroz keyinroq Kaipov, Nizom Sobitov, Abdrahmon Saidiy, Xolida Burnashevlarning tatar yangi usul maktablari Buxoro jadidlari Munzim, Ayniy, Hamdiy, Mehriy, Fitrat, Mirzo Siroj va boshqalarning tafakkurida inqilob o'zgarishga sabab bo'ldi.

2. 1908-yil oktyabrdan 1914-yil o'rtalarigacha. Shakllanish bosqichi Buxoro jadidchiligi madaniy-ma'rifiy harakat sifatida: kashfiyot "Usuli jadid" tipidagi birinchi tojik maktabi, tashkiloti va faolligi "Tarbiyai atfol" maxfiy jamiyati faoliyati, nashriyot sherikliklari "Shirkati Buxoroi sharif" va "Barakat", "Ma'rifat" kutubxonalar, o'quv-uslubiy va badiiy kitoblar, gazeta chop etish "Buxoroi Sharif" va "Turon".

3. 1914-yil o'rtalaridan 1917-yil fevraligacha. Bu davr Buxorodagi jadidlar faoliyatidagi inqiroz bilan xarakterlanadi. Jahon urushi, ularga nisbatan amirning repressiv choralarning kuchayishi ushbu davrga xos xususiyatlardan biridir. Bu vaqtda Buxoro jadidlari orasida birinchi bo'linish, o'ngga va chap qanotga bo'linish sodir bo'ladi.

4. 1917-yil martdan 1918-yil martgacha. Siyosiy faollashtirish jadidlar faoliyati, Buxoro jadidchiligining ikkinchi tabaqalanishi va "Yosh buxoroliklar" partiyasining tashkil topishi. Biroq jadidchilikning rivojlanish jarayoni namoyish tarqatilgach, Buxoro amirligi hududi to'xtatildi. Jadidlar 1917-yil 8-aprelda, ayniqsa Kolesovning muvaffaqiyatsiz yurishidan keyin (jadidlarning sovet hokimiyati bilan birgalikdagi harakatlari) 1918-yil martda buning oqibati ularning qo'shni Turkistonga hijrat qilishlari edi.[19]

Buxoro jadidlarining qarashlarini shakllantirishga Buxoroning taniqli olimi, yozuvchisi va jamoat arbobi - Ahmad Donish (1827-1897) katta ta'sir ko'rsatdi, u Markaziy Osiyodagi ta'lim harakatining yirik mafkurachilari va ajdodlaridan biri hisoblanadi.

Ahmad Donishning Buxoro amirligi elchilari safida Sankt-Peterburgga bir necha bor qilgan safari xotiralari asosida yaratilgan "Navodir ul-vaqoye" asari o'ziga xos ilmiy va ma'rifiy ahamiyatga ega. Asarda Buxoro amirligi, umuman, Turkiston xalqlarining ijtimoiy taraqqiyotdan orqada qolish sabablari tahlil qilishga harakat qilingan, bundan qutulish yo'llari ko'rsatilgan. Uning fikricha, Buxoro aholisining chorak qismi ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulni yaxshi anglar, shu sababli tartiblardan norozi edi. I.M.Mo'minov Ahmad Donishning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini o'rganish va tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga keladi: u "o'z vatani va xalqini qoloqlikdan chiqarish yo'lini dastlab quyidagi hayotiy muhim tadbirlarni amalga oshirishda deb bildi: mamlakat mustaqilligini ta'minlaydigan adolatli hokimiyat o'rnatish; irrigatsiyani kengaytirish asosida dehqonchilikni rivojlantirish; hunarmandchilik ishlariga har tomonlama yordam berish; fan yutuqlariga erishish uchun harakat qilish; olimlar, vrachlar tayyorlash kerakki, toki aholi ularning xizmatidan bahramand bo'lsin".[11]

A.Donishning qarashlarida, hamma odamlar ma'rifatli va boy-badavlat bo'lishga haqlidirlar, ammo obyektiv shart-sharoit va subyektiv omillarning imkoniyatlari cheklanganligi uchun ularning aksariyat qismining qorni och, usti yupun va chalasavod, hatto besavoddir. Ahmad Donish eng avvalo, e'tiborini Buxoro amirligining idora usulini, diniy maktablar va madrasalardagi o'qitish va tarbiyalash tizimini tanqid qilishga qaratdi. Ahmad Donish Turkistonni iqtisodiy va ma'naviy qullikdan qutqarishning birdan-bir oqilona yo'li Yevropa fani va texnikasini egallashdan iboratdir, degan g'oyani ilgari surdi.[24]

Buxoroda jadidchilik harakatini rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan Fayzullo Xo'jayevdir, uning asarlari Buxoro inqilobi tarixiga bag'ishlangan va "Yosh buxoroliklar" partiyasi, Jadidchilik, "jadidchilar" kabilarni alohida ta'kidlashimiz kerak.[19]

Buxoro jadidchiligi 1910-yilda tashkiliy jihatdan shakllandi, "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") maxfiy jamiyatining tashkil etildi. Yetti yil davomida (1910-1917) ushbu jamiyat Buxoro jadidlarining faoliyati markaziga aylandi. S.Ayniy jamiyatning vazifasini quyidagicha belgilaydi:

1. Ta'lim sohasida - odamlarni bilim va ta'lim olish, bilim olishga intilayotganlarga har tomonlama yordam berish, gazeta, jurnal va boshqa adabiyotlarni xalq orasida tarqatish. Jamiyat a'zosi gazeta va adabiyotga doimiy ravishda ega bo'lishi, savodsiz odamlarga ovoz chiqarib o'qish uchun kitob, darsliklar, savodlilar uchun esa bahs, munozara va mushohadani o'rgatish kerak edi.

2. Xalq manfaatlarini himoya qilish sohasida – an'anaviylikka qarshi kurash, odamlarning to'y va dafn marosimlari paytida isrofgarchilik va xarajatlarni kamaytirish, yomon odatlardan voz kechish.

3. Hukumatga qarshi tashviqot sohasida - amirlik hukmron doiralarning o'zboshimchaligi, zo'rvonligi va despotizmi (amir, beklar, qozilar, ruhoniylar)ni xalqqa ko'rsatish.[20]

Buxoro sharoitida jadidlar harakati amirning reaksion, feodal-monarxiya rejimiga qarshi yagona muxolifat edi.

Agar dastlab u mahalliy ziyolilarning liberal fikrlaydigan qismini qamrab olgan bo'lsa, unda asta-sekin ularning doirasi nafaqat ziyolilar, balki yangi paydo bo'lgan mahalliy savdo burjuaziyasi, ishchilar, hunarmandlar hisobiga ham kengayib bordi. Buxoro jadidlari din va shariat asoslarini saqlab qolgan holda islomni yangi sharoitlarga moslashtirmoqchi edilar. Shuni ta'kidlash kerakki, jadidlar amirlikdagi islohotni ta'lim tizimini isloh qilishdan boshlamoqchi va ularning siyosiy talablari, xususan, dastlab madaniy-ma'rifiy, keyin esa ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida shakllandi. 1917-yilgacha Buxoro jadidizmining boshida asosan Abdulvohid Munzim, Ahmadjon Hamdi, Muqammil Burxonov va Sadridin Ayniy turardi.

XULOSA

Buxoro jadidchiligining asosiy namoyandalari Abdurauf Fitrat, Mirzo Siroj Hakim, Domullo Ikrom, Sadri Ziyo, Muhiddin Mansurov, Abduqodir Muxiddinov, Mukammil Burxonov, Usmonxo'ja Pulodxo'jaev, Fayzullo Xo'jayev, Abdulvohid Munzim, Sadridin Ayniy, Muxtor Saijonov, Muso Sayjonov, Mirzo Jalol Yusufzoda, Xoja Abdusattor, Homidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Ahmad Naim Nusratullobek va boshqalar.

Buxoro xalqlarining iqtisodiyoti, tarixi va madaniyatini o'rganib, tavsiflab, eng yaxshi xalq an'analariga, xalq ijodiyoti va san'atiga bo'lgan muhabbat va chuqur hurmat tuyg'usiga ega bo'lib,

nafaqat Rossiya, balki butun dunyo uchun yangi fan sahifalarini ochdilar. Bunga V.V.Bartold,[23] M.S.Andreyev, A.A.Semyonov, D.N.Logofet,[22] AGubarevich-Radobyelskiy va boshqalarning tadqiqotlari misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaydiki, "Behbudiy va Avloniy, Hamza va Munavvarqori, Fitrat va Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg'otdi. Ularning xalq erkinligi va saodati yo'lidagi ezgu fikr va ezgu so'z va ezgu amallari uchun ulkan ma'naviy omil bo'ldi" [1.18] Shunday ilmiy meros, konseptual fikrlar majmuasiga jadidlarning ilmiy, iqtisodiy mazmun kasb etadigan asarlari, faoliyati misol bo'la oladi, ya'ni, jadidlarning ilmiy merosidan milliy taraqqiyotni yanada mustahkamlash, zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlarini ravnaq toptirish, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichidagi belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Shunday qilib, tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeyi past darajada bo'lib, u chor Rossiyasiga bog'liq edi. Amirlikning iqtisodiy hayoti va madaniy rivojlanishining pasayishi, mahalliy aholining ijtimoiy ahvoning yomonlashishi, milliy ziyolilar-jadidlar vakili sifatida asta - sekin amirlikning ijtimoiy-siyosiy hayotiga kiritilgan kichik va yirik burjuaziyaning progressiv qatlamlari tarix maydoniga kirishni oldindan belgilab qo'ydi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoroda jadidchilikni o'rganish natijalari uning Markaziy Osiyo tarixiga qo'shgan salmoqli hissasidan dalolat beradi, bu mintaqadagi maorif, madaniyat va ijtimoiy o'zgarishlarning muhim jihatlarini yoritadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: "O'zbekiston", 2021-yil, 464 bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi
3. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. -Toshkent.: Akadem - Xizmat, 2006. -B.34.
4. Adeeb Khalid. Central Asia: A New History from the Imperial Conquests to the Present. The USA. 2021. 576 pages.
5. Edward A. Allworth. Evading Reality: The Devices of 'Abdurauf Fitrat, Modern Central Asian Reformist. Boston.: Brill Leiden. 367 pages.
6. Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams, New Ser. Vol.41, Issue 1. (Mar., 2001).
7. Абдуллин Я.Г. Джадидизм, его социальная природа и эволюция // Из истории татарской общественной мысли. Казань: Казанский филиал АН СССР, 1979. - С.91-117.
8. Стефан А. Дюдуаньон. Кадымизм: элементы социологии мусульманского традиционализма в татарском мире и в Мавераннахре (конец XVIII – нач XX вв.) – Казань: Институт истории АН Татаристана, 1997.
9. Расул Ходизода. То не звезды падают : Ист. роман / . - Душанбе : Адиб, 1991. – 431.
10. Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате. Гос. издат.им. Рахима Джалили. - Ходжанд, 2000. -176 с.
11. Mo'minov I.M. O'zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy -falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar (XIX asrdan va XX asrning boshlarigacha). -T.: Fan,1999. 183-184 betlar.
12. Maxmudova G.T. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. - Toshkent: "DAVR PRESS", 2006. -136 b.
13. Madayeva Sh.O. Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlari: Avtoref. dis. ... fals. fan. nom. - Toshkent: O'zRFA I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 1996.
14. Alimova D. Markaziy Osiyoda jadidchilik. Yangilanish yo'llari, islohotlar, mustaqillik uchun kurash. - Toshkent: O'zbekiston. 2000. -24 s.
15. Ziyoyeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. - Toshkent: G'ofur g'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 2000. -175 b.
16. Qosimov B. Ismoilbek Gasprali. – Toshkent: G'ofur g'ulom nomidagi Adabiyot va sanat, 1992. – 48 b.
17. Ходжаев Ф. Джадиды. // Очерки революционного движения в Средней Азии. - М.: 1926. С. 6-12;
18. Mahmudov G. Jadid adabiyotida milliy istiqlol mavzusi. - Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 102 b.
19. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1-sim Hindu sayyohi bayoni.-T.: Ma'naviyat, 2000.
20. Эргашев Б.Х. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма. Идеология молодобухарцев: дисс. Д-ра философ. Наук. - Бухара. 1993. -314 с.
21. Ayniy S. Vospominaniya // per. S tadjikskogo A. Roznenfeld.-Moskva, 1960. –S.255.
22. Ayniy S. Tarixi inqilobi Buxoro.- Dushanbe: Adib, 1987. - S. 99-100.
23. Logofet D.N. Strana bespravniya. Buxarskogo xanstvo I ego sovremennoe sostoyanie. -Sankt- peterburg, 1909.- S.29
24. Бартольд В.В. Бухара. Ее памятники и их судьба. // Академик ВВ.Бартольд. Сочинения.- Т.IV.-М.: Наука, 1966.-С.280.
25. Мирза-Ахмедова П., Рашидова Д.А. К изучению джадидского движения // Общественные науки в Узбекистане, 1990, № 7. –С.30-31.